



**BO'LAJAK TARBIYACHILARDA TANQIDIY VA IJODIY TAFAKKURNI
RIVOJLANTIRISHDA INTEGRATIV YONDASHUVNING O'RNI**

*Andijon davlat pedagogika instituti o'qituvchisi
Xolmirzayeva Gulbahor*

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15256135>

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi kunda bo'lajak tarbiyachilarda tanqidiy va ijodiy tafakkurni rivojlantirishda integrativ yondashuv va uning ahamiyati yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: tanqidiy tafakkur, ijodiy tafakkur, integrativ yondashuv.

Zamonaviy pedagogikada tanqidiy va ijodiy tafakkur tushunchalari shaxsning tafakkuriy salohiyatini to'liq shakllantirishga yo'naltirilgan integrativ jarayon sifatida qaraladi. Bu ikki tafakkur turi o'zaro bog'liq bo'lib, bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy tayyorgarligida asosiy kognitiv va reflektiv kompetensiyalar sirasiga kiradi.

Tanqidiy tafakkur – bu shaxsning axborotga asoslangan holda mantiqiy, tahliliy va dalillarga tayangan holda fikr yurita olish qobiliyatidir. U mavjud bilim va tajribalarni qayta baholash, sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash, muammolarga ko'p qirrali yondashuvni anglatadi. Tanqidiy fikrlash shaxsdan faqat axborotni qabul qilish emas, balki uni baholash, tahlil qilish va asosli xulosa chiqarishni talab qiladi.

Ijodiy tafakkur esa shaxsning yangi, noodatiy, original g'oyalarni yaratish, mavjud muammoni yangicha hal qilish qobiliyatidir. Bu tafakkur turi mustaqil fikrlash, erkin mulohaza yuritish, alternativ yechimlar topishga asoslanadi. Ijodiy tafakkur insonning kognitiv faoliyati bilan bir qatorda estetik va emotsional-intellektual salohiyatini ham kamrab oladi.

Pedagogik nuqtai nazardan, ushbu ikki tafakkur turi integratsiyalashgan holda bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy-pedagogik tafakkurini shakllantirish uchun poydevor vazifasini o'taydi. Masalan, tanqidiy tafakkur orqali tarbiyachi tarbiyaviy muammolarni chuqur tahlil qiladi, ijodiy tafakkur orqali esa ularga noodatiy, samarali yechimlar topadi. Bu fikr A.V. Kxutorskoy tomonidan ilgari surilgan «shaxsga yo'naltirilgan ta'lim» konsepsiyasida ham asoslab berilgan — bunda har bir tarbiyalanuvchining tafakkur shakllanishiga individual yondashuv muhim o'rin tutadi.

Sharq allomalari ham bu borada muhim fikrlar bildirgan. Jumladan, Al-Farobiy "Aql va tafakkur inson komilligining asosi" deya ta'kidlagan bo'lsa, Ibn Sino ijodiy tafakkurni "fikr erkinligi" bilan bog'laydi. Bu qarashlar zamonaviy pedagogik tafakkur konsepsiyalari bilan uyg'unlashadi.

Shunday qilib, tanqidiy va ijodiy tafakkur tushunchalari zamonaviy pedagogikada nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham bo'lajak tarbiyachilar shaxsiy va kasbiy rivojida muhim ahamiyat kasb etadi.

Integrativ yondashuv — bu ta'lim jarayonida fanlar, uslublar va metodlarni o'zaro bog'liq holda, yaxlit tizim sifatida qo'llashga asoslangan pedagogik yondashuvdir. Uning asosiy maqsadi bilimlarni alohida fanlar doirasida emas, balki bir-biri bilan bog'langan holda, hayotiy muammolarni hal qilishga qodir shaxsni shakllantirishdir. Bu yondashuv orqali ta'lim real hayot bilan bog'lanadi, talabalarning tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyati rivojlanadi, ularning fanlararo bog'lanishlarni anglash imkoniyatlari kengayadi.

Fanlar integratsiyasi ta'lim mazmunini yaxlitlashtirishga xizmat qiladi. Masalan, atrof-muhitni muhofaza qilish mavzusini o'rganishda biologiya, geografiya va kimyo fanlarini o'zaro bog'liq holda o'rgatish orqali bolalarda murakkab muammolarni ko'pqirrali tahlil qilish qobiliyati shakllanadi. Bunday fanlararo yondashuv o'quv jarayonini mantiqiy va mazmunan boy qiladi, bilimlarning chuqur va mustahkam o'zlashtirilishiga zamin yaratadi.

Uslublar integratsiyasi esa ta'lim jarayonida qo'llanadigan o'qitish va o'rganish usullarini uyg'unlashtirishni nazarda tutadi. Masalan, leksiya va muhokama (diskussiya), keys-stadi, klaster yoki proektl o'qitish kabi uslublarni birgalikda qo'llash orqali ta'lim jarayoni faol va interaktiv



tusga kiradi. Bu usullar o'quvchining bilim olish jarayonidagi faolligini oshiradi, mustaqil fikrlash, tahlil qilish va yechim topish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Metodlar integratsiyasi esa o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish maqsadida turli metodlarni moslashtirib qo'llashni anglatadi. Masalan, ijodiy fikrlashni shakllantirishda muammoli vazifalar yechish, ro'li o'yinlar tashkil etish, tajriba asosida bilim berish kabi turli metodlardan birgalikda foydalanish ta'lim jarayonini samaraliroq qiladi. Bu orqali nazariy bilim amaliy ko'nikmalar bilan uyg'unlashadi, o'quvchi bilimlarni faqat passiv qabul qiluvchi emas, balki faol ijodkorga aylanadi.

Xulosa qilib aytganda, tanqidiy va ijodiy fikrlash mezonlari va indikatorlaridan foydalanish bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy rivojlanishi, ularning muammolarni yechish va yangicha yondashuvlar ishlab chiqish qobiliyatini aniqlash va rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Bu esa o'quv-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi 2022-2026-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining taraqqiyot strategiyasi to'g'risida” gi PF-60-son [Farmoni](#)
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston respublikasi prezidentining Farmoni xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida Farmoni, 05.09.2018 yildagi PF-5538-son
3. Jabborova Malohat “TALABALAR AKADEMIK O'ZLASHTIRISHINING NAZARIYMETODOLOGIK TALQINI” Образование и инновационные исследования (2023 год №5)
4. Iminova, D. N. (2021). Maktabgacha ta'lim tashkiloti va maktab o'rtasidagi hamkorlikning ahamiyati. Science and Education, 2(1), 301-303. <https://orcid.org/0009-0001-1507-7735> ORCID